

“YUMSHOQ KUCH”NING MAZMUNI VA UNING SHAKLLANISH BOSQICHLARI**Nizamov Ahror Maxmud o‘g‘li**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti,
 Amaliy siyosatshunoslik mutaxassisligi magistranti.
 ahror.nizamovuz@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Yumshoq kuch” tushunchasining nazariy asoslari, uning mazmun-mohiyati va rivojlanish bosqichlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Maqolada Jozef Nay tomonidan shakllantirilgan konsepsiyaning xalqaro munosabatlarda tutgan o‘rni va ta’sir vositalari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, “Yumshoq kuch”ning madaniyat, diplomatiya, ilm-fan va ommaviy axborot vositalari orqali qanday tatbiq etilishi ko‘rib chiqiladi. Maqolaning asosiy maqsadi — “Yumshoq kuch”ning zamonaviy global siyosiy tizimdagi ahamiyatini ochib berishdan iboratdir.

Kalit so‘zlar: “Yumshoq kuch”, Jozef Nay, xalqaro munosabatlar, madaniy diplomatiya, ta’sir strategiyasi, global siyosat, zamonaviy diplomatiya.

Annotation: This article is devoted to the study of the theoretical foundations of the concept of "soft power", its essence and stages of development. The article analyzes in detail the role of the concept formulated by Joseph Nye in international relations and the means of influence. It also examines how "soft power" is applied through culture, diplomacy, science, and the media. The main purpose of the article is to reveal the importance of "soft power" in the modern global political system.

Key words: "Soft Power," Joseph Nye, International relations, cultural diplomacy, influence strategy, global politics, contemporary diplomacy.

KIRISH

Bugungi global dunyoda davlatlarning xalqaro maydondagi ta’siri nafaqat harbiy qudrat yoki iqtisodiy imkoniyatlar bilan belgilanadi, balki “Yumshoq kuch” deb ataluvchi konsepsiya ham muhim o‘rin tutadi. Jozef Nay tomonidan birinchi bor ilmiy doiraga kiritilgan bu tushuncha, davlatlarning madaniyat, qadriyatlar, diplomatiya va ta’sirchan g‘oyalar orqali boshqalarga ta’sir o‘tkazish qobiliyatini anglatadi. XX asr oxirida va XXI asr boshida, “Qattiq kuch” strategiyasidan uzoqlashgan holda, “Yumshoq kuch”ning ahamiyati sezilarli darajada oshdi .

“Yumshoq kuch”ning mazmuni o‘z manfaatlarini boshqa davlatlar manfaatlariga moslashtirish, boshqalarni o‘z xohishiga ko‘ra harakat qilishga undashga harakat qiladi. Buning asosiy vositalari sifatida madaniyat, san’at, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari va g‘oyaviy ta’sir vositalari kiradi .

Ushbu tushuncha nafaqat g‘arb davlatlari, balki Xitoy, Hindiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar tomonidan ham faol qo‘llanilmoqda .

Ushbu maqolada “Yumshoq kuch”ning mazmuni, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy xalqaro munosabatlardagi ahamiyati batafsil ko‘rib chiqiladi. Maqsad — uning shakllanishi va tatbiq etilishidagi nazariy hamda amaliy jihatlarni ochib berishdan iboratdir.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Yumshoq kuch”ning mazmuni nafaqat diplomatiya va xalqaro aloqalar, balki davlatlarning madaniy, siyosiy va iqtisodiy ta’siri orqali boshqa davlatlarga o‘z manfaatlarini ilgari surishiga imkon beruvchi keng tushuncha sifatida qaraladi.

Madaniyat va qadriyatlar orqali ta’siri. “Yumshoq kuch”ning eng asosiy omillaridan biri madaniyatdir. Madaniy ta’sir – bu bir davlatning madaniy qadriyatlari, urf-odatlarini, san’ati

va adabiyotini boshqa davlatlar va xalqlarga tarqatishdir. Bu ta'sir nafaqat davlatlarning imidjini mustahkamlashga, balki ularning xalqaro maydondagi obro'sini oshirishga yordam beradi.

Diplomatik va xalqaro aloqalar. "Yumshoq kuch" diplomatiya va tashqi siyosat orqali ham ta'sir o'tkazadi. Davlatlar o'zaro diplomatik aloqalar orqali, iqtisodiy yordam va ijtimoiy hamkorliklar orqali, o'z qadriyatlarini va manfaatlarini ilgari surishga harakat qiladilar. Ushbu jarayonlarda, kuchli diplomatik tarmoqni o'rnatish, qarama-qarshi tomonlarni tinch yo'l bilan anglash va umumiy manfaatlar asosida kelishuvlarga erishish imkoniyatlari mavjuddir.

Ilm-fan va ta'limdagi yutuqlar. Ilmiy yutuqlar va ta'lim orqali davlatlar o'z ta'sirini kuchaytirishi mumkin. Xalqaro ta'lim dasturlari, ilmiy hamkorliklar va grantlar yordamida davlatlar o'z talabalarini boshqa mamlakatlarga yuborish va ularning ta'lim tizimini xorijdan o'rganishga imkon yaratadi. Shu bilan birga, ilmiy konferensiyalar, tadqiqotlar va texnologik yutuqlar orqali davlatlar nafaqat iqtisodiy rivojlanishini, balki o'zining "Yumshoq kuch"ini ham oshiradilar. O'zbekistonda ham ta'lim sohasida o'zgarishlar va xalqaro hamkorliklarni kuchaytirish uchun shu kabi tashabbuslar muhim rol o'ynashi mumkin.

Raqamli diplomatiya. Zamonaviy texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar yordamida "Yumshoq kuch" yanada kengaygan. Internet va raqamli texnologiyalar, shuningdek, global ijtimoiy tarmoqlar orqali davlatlar o'z ta'sirini yanada kuchaytiradilar. Yosh avlodning internet va raqamli platformalarda faol bo'lishi, davlatlarga o'z g'oyalarini tez va keng tarqatish imkoniyatini beradi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlar orqali siyosiy liderlar yoki tashkilotlar xalqaro aloqalarni rivojlantirishi va global muammolarni hal qilishga yordam berishi mumkin.

"Yumshoq kuch"ning siyosiy va iqtisodiy ta'siri. "Yumshoq kuch"ning samarali qo'llanilishi nafaqat davlatlarning global ta'sirini oshirish, balki ularning xalqaro maydondagi obro'si va qudratini ham mustahkamlashga yordam beradi. Siyosiy ta'sirning kuchayishi, iqtisodiy hamkorlikning rivojlanishi, diplomatik yo'l bilan yangi imkoniyatlarni yaratish imkonini beradi. O'zbekistonning global siyosatdagi o'rni ham "Yumshoq kuch"ni rivojlantirish orqali kengayishi mumkin.

Shunday qilib, "Yumshoq kuch"ning mazmuni bir necha omillarni o'z ichiga oladi va davlatlarning xalqaro aloqalarini shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Bu, o'z navbatida, global siyosatdagi o'zgarishlarga va yangi diplomatik yo'nalishlarga yo'l ochadi. Xalqaro siyosiy jarayonlarda katta kuch markazlarining o'z siyosiy istaklarini amalga oshirishda "Soft power", "Smart power" yoki "Hard power" deb ataluvchi siyosiy uslublarga duch kelamiz. "Soft power" uslubi aynan Xitoy tashqi siyosatiga xosdir. Albatta, Xitoyning "Yumshoq kuch"i natijasi bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z natijasini ko'rsatmoqdadir. Bu rasmiy Pekin va Markaziy Osiyo davlatlari munosabatlarida ham yaqqol seziladi.

"Yumshoq kuch" konsepsiyasi o'tgan asrning 90-yillarida Jozef Nay tomonidan ilgari surilgan. Obama davrida bu konsepsiya sifatida shakllandi. Xitoyda ham "Yumshoq kuch" rivojlanishi XXI asr boshiga to'g'ri keladi. Markaziy Osiyoda bu konsepsiya haqidagi tushunchalar 3-4 yil oldin paydo bo'lgan¹. O'zbekiston sharoitida buni o'rganishga bo'lgan ehtiyoj juda katta bo'lmoqda. "Yumshoq kuch" konsepsiyasi amaliyotda qo'llanilyapti va natijasini bermoqda, shuning uchun ham uni o'rganish, tadqiq etish kerak bo'ladi deb hisoblaymiz.

"Yumshoq kuch" qudratli davlatlar, ya'ni muayyan siyosiy ambitsiyaga, resurslarga ega davlatlar tomonidan ishlatiladigan diplomatiyaning bir ko'rinishi yoki umuman ko'rinmaydigan

¹ Nye Joseph S., *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. Public Affairs., 2004. – P.1-40.

ko‘rinishi deyish ham mumkin. Bunday konsepsiya uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘ladi. O‘ziga xos strategiyalari ishlab chiqariladi.

“Yumshoq kuch” ning asosiy rivojlanish bosqichlariga quyidagi faktlarni keltirishimiz mumkin:

1990-yillar. Jozef Nay konsepsiyasining keng tarqalishi. Bu davrda AQSh o‘zining madaniy diplomatiya va global ta‘sirini oshirish uchun kinolar, musiqa va texnologiyalarni keng qo‘llay boshladi. Madaniyat va g‘oyalar xalqaro siyosatda kuchli ta‘sir vositasiga aylana boshladi.

2000-yillar. Raqobatning kuchayishi: Xitoy, Hindiston, Janubiy Koreya kabi davlatlar madaniy resurslarni “Yumshoq kuch” vositasi sifatida ishlatib boshladi. Xitoy Konfutsiy institutlarini yaratib, o‘z tilini va madaniyatini targ‘ib qilishni kuchaytirdi.

Zamonaviy bosqich. XXI asrda texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali “Yumshoq kuch”ning yangi shakllari paydo bo‘ldi. Misol uchun, Janubiy Koreyaning K-pop va Koreya dramalari global yosh avlodga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Shuningdek, diplomatiya va ommaviy axborot vositalarining integratsiyasi: Davlatlar o‘z brendlarini xalqaro maydonda targ‘ib qilish uchun global axborot platformalaridan faol foydalanmoqda².

Xitoy qudrati oshgan sayin boshqa qudratli davlatlar singari “Yumshoq kuch” konsepsiyasidan foydalanadi. Jozef Nay nazariyasiga ko‘ra, bu narsa ommaviy diplomatiya deyiladi. Bunda nodavlat tashkilotlar, fuqarolik institutlari ko‘proq jalb etiladi. Xitoyning “Yumshoq kuch”i ham o‘ziga xos ko‘rinishga ega. Xitoy “Yumshoq kuch” sifatida ijtimoiy-gumanitar aloqalardan tashqari iqtisodiy, texnologik diplomatiyani ham qo‘llaydi, investitsiyalarni ham. Xitoy ideologiyasi ham “Yumshoq kuch” vositasi hisoblanadi.

Markaziy Osiyoga “Yumshoq kuch” siyosati kirishi oldinroq boshlangan, chunki Xitoy Markaziy Osiyoda investitsiyalar orqali moliyaviy diplomatiyani amalga oshirib kelmoqda anchadan beri. Bugungi kunda esa boshqacha ko‘rinishlari ham kirib kelmoqda.

“Yumshoq kuch” katta iqtisodiy qudrat talab qiladi va uzoq muddatga mo‘ljallangan bo‘ladi, shuning uchun ko‘p davlatlar buni ishlatib olmaydi. “Yumshoq kuch” Xitoyning tarixiga ham bog‘liq bo‘lib, shuning uchun bu konsepsiyani qabul qilgan edi.

Media, OAV, texnologiyalardan foydalanish so‘nggi yillarda Xitoyning ushbu sohalarida erishayotgan yutuqlari natijasi deb o‘ylayman. 90-yillarda Xitoy bu qadar iqtisodiy kuchga ega emasdi. 2000-yildan keyin “Yumshoq kuch” faollashdi. 2007-yilda Kommunistik partiya siyezdida ilgari surildi va siyezd yakuniy hujjatiga kiritildi. 2004-yildan boshlab, Xitoy madaniyatini butun dunyoga yoyish, Konfutsiy institutlari ochilishi ham “Yumshoq kuch”ning bir ko‘rinishi edi deya fikr yuritishadi mutaxassislar. Bugungi kunda Markaziy Osiyo davlatlarida 13 ta Konfutsiy institutlari bor.

“Yumshoq kuch”ga nisbatan juda bir salbiy qarash kerak emas. Istalgan davlat, O‘zbekiston ham o‘z madaniyatini targ‘ib qilish, ta‘sirini oshirish uchun “Yumshoq kuch” vositalaridan foydalanishi mumkin. Amerika va boshqa g‘arb davlatlarida ko‘plab Konfutsiy institutlari yopildi, chunki ular siyosiylasha boshlagan edi. Bunday institutlarning maqsadi xitoy tili va madaniyatini targ‘ib qilish bo‘lishi kerak. Markaziy Osiyoda hali bunday siyosiydashish muammosi bo‘lganicha yo‘q. Xitoy tili murakkabligi uchun ham bizda ommalashib ketganicha yo‘q.

“Yumshoq kuch” har doim ham muvaffaqiyatli bo‘lavermaydi. Xitoy misolida oladigan bo‘lsak ham, katta resurslar evaziga amalga oshirgan ishlari samara beravermaydi hamma vaqt

² Mingst, Karen A., Arreguin Toft, Ivan M., Essentials of International Relations., Norton, Company., 2017. – P.220-240.

ham. Masalan, G'arbda Xitoyning "Yumshoq kuch"ning mazmuni samara bermayapti deyarli. Markaziy Osiyoda ham Xitoyning madaniy diplomatiyasi katta ta'sirga ega emas. Chunki, bizda Janubiy Koreyaning madaniyatiga qiziqish kabi qiziqish yo'q Xitoyga nisbatan, garchi Xitoy ko'proq harakat qilayotgan bo'lsa-da. Xitoy tiliga qiziqish biroz oshgan, bunga sabab esa Markaziy Osiyo talabalari uchun kvotalar taklif qilinayotgani isbotidir. Lekin, umumiy aholimizda xitoy tili va madaniyatiga qiziqish yo'q.

Xitoyning OAVga ta'siri bo'yicha katta tadqiqotlar ham olib borilgan. Eng oddiy usullardan biri — kontent almashinuvidir. Masalan, o'tgan yili Xitoy rahbari O'zbekistonga tashrifi doirasida Xitoyning eng yirik axborot agentligi bo'lmish Sin Xua axborot agentligi bilan O'zbekiston milliy axborot agentligi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolandi. Bunday shartnoma ortidan tekshirilgan, ma'qul bo'lgan materiallar almashinuvi bo'ladi. Deylik, kelishuvsiz boshqa manbalardan material olinsa, uyg'urlar mavzusida nimadir olish mumkindir, lekin bu kelishuvdan keyin Xitoy tarafi bunday kontekstdagi salbiy material taqdim etmaydi, albatta. Xitoyda katta senzura borligini hisobga olsak, bu ayni muddao bo'ladi va bu shartnoma taklifi Xitoy tomonidan chiqqandir³.

Shuningdek, "Yumshoq kuch" - bu boshqa davlatlarni o'z siyosatiga ishonirish uchun kooperatsiya dasturlari va pul yordamidan foydalanishni tavsiflash uchun ishlatiladigan atamadir.

Jozef Nay Garvarddagi Kennedi hukumat maktabi dekani, Milliy razvedka kengashi raisi va prezident Bill Klinton ma'muriyatida mudofaa kotibi yordamchisi bo'lib ishlagan. U yumshoq kuch g'oyasi va undan foydalanish haqida ko'p yozgan va ma'ruza qilgan.

Jozef Nay yumshoq kuchni "majburlash orqali emas, balki jalb qilish orqali xohlagan narsangizga erishish qobiliyati" deb ta'riflaydi. U ittifoqchilar bilan mustahkam aloqalarni, iqtisodiy yordam dasturlarini va hayotiy muhim madaniy almashinuvlarni yumshoq kuch namunasi sifatida ko'radi. Shubhasiz, yumshoq kuch "qattiq kuch"ga qarama-qarshidir. Qattiq kuch harbiy kuch, majburlash va qo'rqitish bilan bog'liq bo'lgan sezilarli va oldindan aytib bo'ladigan kuchni o'z ichiga oladi.

Tashqi siyosatning asosiy maqsadlaridan biri boshqa davlatlarni sizning siyosat maqsadlaringizni o'z maqsadlari sifatida qabul qilishiga erishishdir. Yumshoq kuch dasturlari ko'pincha odamlar, jihozlar va o'q-dorilar uchun xarajatlarsiz va harbiy kuch yaratishi mumkin bo'lgan adovatsiz ta'sir qilishi mumkin.

Marshall rejasi. Misol uchun, Amerika yumshoq kuchining klassik namunasi Marshall rejasidir⁴. Ikkinchi jahon urushidan keyin Qo'shma Shtatlar urushdan vayron bo'lgan G'arbiy Yevropani Kommunistik Sovet Ittifoqi ta'siriga tushib qolishining oldini olish uchun unga milliardlab dollarlarni yo'naltirdi. Marshall rejasiga oziq-ovqat va tibbiy yordam kabi insonparvarlik yordami kiradi va transport-kommunikatsiya tarmoqlari hamda kommunal xizmatlar kabi vayron bo'lgan infratuzilmalarni tiklash bo'yicha ekspert maslahati shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri pul grantlari.

Prezident Barak Obamaning Xitoy bilan "100 000 Strong" tashabbusi kabi ta'lim almashinuv dasturlari ham yumshoq kuchning elementi hisoblanadi va Pokistondagi suv toshqini nazorati kabi tabiiy ofatlarga yordam berish dasturlarining barcha turlari, Yaponiya va Gaitidagi

³ Gilboa Eytan., The 'CNN Effect' in Action: The Media, Foreign Policy and Iraq War. Middle East Journal, 62 (1), 2008. – P.21-36.

⁴ Marshall rejasi - Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropani qayta qurish., 2019. Url: <https://www.greelane.com/uz/gumanitar-fanlar/tarix-va-madaniyat/the-marshall-plan-1221199>.

zilzilalarni bartaraf etish, Yaponiya va Hindistondagi sunami oqibatlarini bartaraf etish va Afrikadagi ocharchilikka qarshi kurashishdan iboratdir.

Josef Nay, shuningdek, kino, alkogolsiz ichimliklar va tez ovqatlanish tarmoqlari kabi Amerika madaniy eksportini yumshoq kuch elementi sifatida ko'radi. Bular ko'plab xususiy Amerika bizneslarining qarorlarini ham o'z ichiga olgan bo'lsa-da, AQShning xalqaro savdo va biznes siyosati ushbu madaniy almashinuvlarni amalga oshirishga imkon beradi. Madaniy almashinuvlar xorijiy davlatlarni AQSh biznesi va aloqa dinamikasining erkinligi va ochiqligi bilan qayta-qayta hayratda qoldiradi.

Amerikaning so'z erkinligini aks ettiruvchi internet ham yumshoq kuchdir. Obama ma'muriyati ba'zi davlatlarning dissidentlar ta'sirini yo'q qilish uchun internetni jilovlashga urinishlariga keskin munosabatda bo'ldi va ular "arab bahori" qo'zg'olonlarini rag'batlantirishda ijtimoiy tarmoqlarning samaradorligini bemalol ta'kidlaydilar.

Bush doktorinasi. Josef Nay 11-sentabr voqealaridan keyin Qo'shma Shtatlarda yumshoq kuchdan foydalanishning pasayishi kuzatildi. Afg'oniston va Iroq urushlari va Bush doktorinasining oldini olish urushidan foydalanish va bir tomonlama qarorlar qabul qilish ichki va xorijdagi odamlar ongida yumshoq kuchning ahamiyatini yo'qotdi⁵.

Donald Tramp prezidentligi davrida, Fortune ma'lumotlariga ko'ra, 2018-yilda Qo'shma Shtatlar yumshoq kuchlar bo'yicha dunyodagi eng yuqori o'rindan to'rtinchi o'ringa tushib ketdi, chunki mamlakat Trampning "Birinchi navbatda Amerika" siyosati doirasida bir tomonlamalikka o'tadi⁶.

Venchur kapitalisti va siyosatshunos Erik X. Li yumshoq kuch qattiq kuchsiz mavjud emasligini ta'kidlaydi. U tashqi siyosatda shunday deydi: "Aslida yumshoq kuch qattiq kuchning kengaytirilgan variantidir va shunday bo'lib qoladi. Tasavvur qiladigan bo'lsak, Qo'shma Shtatlar dunyodagi ko'plab yangi demokratik davlatlar kabi qashshoq, qashshoq va zaif bo'lib qolgan, lekin o'zining liberal qadriyatlarini va institutlarini saqlab qolgan bo'lsa davlatlar shunga o'xshash bo'lishni xohlaydilar".

Shimoliy Koreya yetakchisi Kim Chen Inning Tramp bilan teng huquqli deb hisoblangan uchrashuvlari yumshoq kuch bilan emas, balki qattiq kuch tufayli amalga oshirildi, deya qayd etadi Li. Rossiya esa G'arbdagi siyosatni buzish uchun yumshoq kuchdan yashirincha foydalanmoqda. Boshqa tomondan, Xitoy o'z hamkorlarining qadriyatlarini qabul qilmasdan, o'zining va boshqalar iqtisodiyotiga yordam berish uchun yumshoq kuchning yangi shakliga aylanmoqdadir.

XULOSA

"Yumshoq kuch" tushunchasi, asosan, davlatlarning boshqa davlatlar yoki xalqaro jamiyatga o'z madaniyatini, qadriyatlarini, siyosiy tizimini va ijtimoiy yutuqlarini taqdim etish orqali ta'sir o'tkazish imkoniyatini anglatadi. Bu tushuncha, Jozef Nay tomonidan 1990-yillarda ilgari surilgan va vaqt o'tishi bilan global siyosat va diplomatiya sohasida muhim ahamiyat kasb etdi. "Yumshoq kuch"ning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari, avvalambor, madaniyat, diplomatiya, ilm-fan, ta'lim, hamda raqamli texnologiyalar orqali amalga oshiriladi. Davlatlar o'z madaniy va ilmiy yutuqlari orqali ta'sir o'tkazishga, xalqaro aloqalarni mustahkamlashga, va o'zining xalqaro imidjini rivojlantirishga harakat qilmoqda.

⁵ Bush doktorinasini tushunish., 2021. Url: <https://www.greelane.com/uz/gumanitar-fanlar/muammolar/the-bush-doctrine-3310291>.

⁶ Natasha Bach., Under President Trump, the U.S.'s 'Soft Power' Is Waning., July, 2013. Url: <https://fortune.com/2018/07/13/us-soft-power-ranking-fourth-place/>.

Shakllanish bosqichlarida, 1990-yillarda AQShning global madaniy ta'siri va texnologiyalardagi yutuqlari, 2000-yillarda Xitoy va Koreya kabi davlatlarning madaniy diplomatiya sohasida qo'llanilayotgan yangi strategiyalar, va hozirgi kunda raqamli diplomatiyaning kuchayishi "Yumshoq kuch"ning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon davomida, davlatlar o'zlarining "Yumshoq kuch"larini global maydonda ishlatish va ta'sir doirasini kengaytirishga harakat qilishmoqda.

Shu bilan birga, "Yumshoq kuch" davlatlarga nafaqat iqtisodiy yoki harbiy jihatdan, balki g'oyaviy va madaniy sohalarda ham global siyosatda o'z o'rnini mustahkamlash imkonini beradi. Global miqyosda muvozanat va hamkorlikka asoslangan ta'sirchanlikni yaratish orqali davlatlar o'z strategiyalarini rivojlantirishda davom etmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nye Joseph S., *Soft Power: The Means to Success in World Politics*. Public Affairs., 2004. – P.1-40.
2. Mingst, Karen A., Arreguin Toft, Ivan M., *Essentials of International Relations.*, Norton, Company., 2017. – P.220-240.
3. Gilboa Eytan., *The 'CNN Effect' in Action: The Media, Foreign Policy and Iraq War*. Middle East Journal, 62 (1)., 2008. – P.21-36.
4. Marshall rejasi - Ikkinchi jahon urushidan keyin G'arbiy Yevropani qayta qurish., 2019. Url: <https://www.greelane.com/uz/gumanitar-fanlar/tarix-va-madaniyat/the-marshall-plan-1221199>.
5. Bush doktorinasini tushunish., 2021. Url: <https://www.greelane.com/uz/gumanitar-fanlar/muammolar/the-bush-doctrine-3310291>.
6. Natasha Bach., *Under President Trump, the U.S.'s 'Soft Power' Is Waning.*, July, 2013. Url: <https://fortune.com/2018/07/13/us-soft-power-ranking-fourth-place/>.